

BADIIY ADABIYOTDA HAJVIY ASARLARNING JANR MOHIYATI

Axmadova Xonzoda Sotiboldi qizi

*Navoiy davlat pedagogika instituti
Ingliz tili va adabiyoti II bosqich magistranti
xonzodaaxmadova@gmail.com*

Annotatsiya. *Badiiy adabiyotda hajviy asarlarning janr xususiyati jihatidan tahlili ularning mazmun va mohiyatini to'laroq ochib berishda va hajviyot haqida tasavvur hosil qilishda yordam beradi. Hajviy asarlarning janr sifatida jamiyatda mavjud bo'lgan illatlar hamda achchiq haqiqatlarni kulgi ortida namoyon qilishi kitobxonni tanqidiy fikrlashga undaydi. Garchi hajviyalar janr, syujet hamda obraz jihatidan atroflicha tahlil qilingan bo'lsada, ularning tarjima jarayoni bilan bog'liq asosiy tushunchalar haqida juda oz bilimga egamiz. Ushbu maqolada komediyalar tarjimasi va bu jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan badiiy qiyinchiliklar yechimi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, hajviy asarlar janr, syujet, yo'nalish hamda obraz jihatidan guruhlarga ajratildi va ularning o'zaro o'xshash hamda farqli tomonlari o'rganildi. Hajvnavislikning uslubiy yo'nalishlari orasidan satira va yumor kuchli ta'sirga ega ekanligi aniqlandi. Shuningdek, ushbu janr nafaqat nasrda, balki she'rriyatda ham kuchli ildiz otganligi tahlil qilindi. Ushbu maqola hajviyotning badiiy diskursda janr sifatidagi xususiyatiga hamda komediyalar tarjima detallarining mukammalligiga e'tibor qaratadi. Shu bilan birga, mazkur tadqiqot hajviy asarlarning jamiyat ongidagi o'rni va ta'siri haqida ham ma'lumot beradi.*

Abstract. *Genre analysis of comic works in fiction helps to fully reveal their content and essence and to create an idea about comics. Comic works as a genre show the vices and home truth in the society behind laughter, encouraging the reader to think critically. Although comics have been thoroughly analyzed in terms of genre, plot and image, we have very little knowledge about the basic concepts related to their translation process. This article considers the translation of comedies and the solution of artistic difficulties that may arise in this process. Moreover, comic works were divided into groups according to genre, plot, direction and image, and their similarities and differences were studied. It was found that satire and humor have a strong influence among the stylistic directions of satire. It was also analyzed that this genre has strong roots not only in prose, but also in poetry. This article focuses on the nature of comedy as a genre in artistic discourse and the perfection of the translation details of comedies. At the same time, this research also provides information about the role and influence of comic works in the consciousness of the society.*

Аннотация. *Жанровый анализ комических произведений в художественной литературе помогает полностью раскрыть их содержание и сущность и сформировать представление о комиксе. Комические произведения как жанр показывают пороки и бытовую правду в обществе, стоящую за смехом, побуждая читателя к критическому мышлению. Хотя комиксы были тщательно*

проанализированы с точки зрения жанра, сюжета и изображения, у нас очень мало знаний об основных понятиях, связанных с процессом их перевода. В данной статье рассматривается перевод комедий и решение художественных трудностей, которые могут возникнуть в этом процессе. При этом комические произведения были разделены на группы по жанру, сюжету, направлению и образу, изучены их сходства и различия. Установлено, что среди стилистических направлений сатиры сильное влияние имеют сатира и юмор. Также было проанализировано, что этот жанр имеет прочные корни не только в прозе, но и в поэзии. В данной статье речь идет о природе комедии как жанра художественной речи и совершенствовании переводческих деталей комедии. В то же время данное исследование также дает информацию о роли и влиянии комических произведений на сознание общества.

Kalit so`zlar. *Badiiy adabiyot, hajviyot, janr, obraz, tarjima nazariyasi, syujet, diskursiv tahlil, yumor, satira.*

Keywords. *Fiction, humor, genre, image, theory of translation, plot, discursive analysis, humor, satire.*

Ключевые слова. *Художественное произведение, юмор, жанр, образ, теория перевода, сюжет, дискурсивный анализ, юмор, сатира.*

Badiiy adabiyot jamiyat tarixidagi muhim o`zgarishlarni turli obrazlar orqali bir qancha yo`nalishda aks ettiradigan xalq va jamiyat hayotining o`ziga xos ifodasidir. Bundan tashqari, so`nggi yillargacha xalq orasida badiiy adabiyotning yuragi hisoblanib kelayotgan hajviy asarlar turmushdagi kishilar fe'l-atvoridagi kamchilik, qusurlarni kulgi orqali ma`lum qilish bilan birga ulardagi odamlar xarakteri kamchiliklarini bartaraf etishni qadimdan adabiyotning asosiy mavzularidan biriga aylantirib kelmoqda(Umarali Normatov,1984).

Shuning uchun ham badiiy diskursda hajviy asarlarning alohida bir yo`nalish sifatidagi mohiyati hamda salmog`i katta.

So`nggi yillarda, badiiy adabiyotda ushbu janrning asl mohiyatini saqlagan holda bir qator zamonaviy hajviy asarlar yaratildi. "Yumorist yozuvchi(Umarali Normatov,1984), "sarkazm"(Dilmurod Quronov, 2013), "ironiya"(Jonathan Lear,2011) kabi atamalar ilmiy munozaralarning bir qismi bo`ldi. Istehzo, kinoya, mubolag`a hamda mutoyiba tushunchalarini o`zida mujassamlashtirgan yumoristik asarlarning asl mazmun va mohiyatini anglash endilikda jamiyat uchun qiyinchilik tug`dirmaydi.

Ushbu maqolada hajviy asarlarning bugungi davrgacha bo`lgan ilmiy va badiiy tahlili jarayoni yoritib berilgan. Bundan kelib chiqadiki, hajviyot adabiyot turlari ichida eng ta`sirchani, eng ommabopi bo`lib, u keng kitobxonlar davrasi, turli sinf vakillari bilan, xalq bilan muloqotda bo`lishning bir vositasi bo`lib xizmat qilmoqda. Hayotimizda ro`y berayotgan tub o`zgarishlar jarayoni hajvchi yozuvchilarimiz uchun bitmas-tuganmas ilhom manbai bo`lish bilan birga, ulardan turli-tuman va rang-barang g`oyaviy-badiiy asarlar yaratishlarini ham taqozo etadi (Sobirjon Toshkanov, 1992).

Aslida har bir badiiy asarning negizida mutoyiba va uning chuqur ma'nosi yotadi. Adabiyotshunoslar negadir buni e'tibordan qochiribroq kelishyapti (Said Ahmad, 1945).

Jahon adabiyotida ham, o'zbek adabiyotida ham hajviy asar yozma va og'zaki adabiyotning mustaqil yo'nalishi sifatida taraqqiy etib kelyapti. Biroq, hajviy asarlar negizida milliy ruh yotganligi sababli ularni tarjima qilish jarayoni bilan bog'liq qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda.

Biz har bir tarjima ijodiy jarayon sifatida tarjimonning individualligi bilan belgilanishi kerak degan fikrga shubha qilmaymiz lekin tarjimada badiiylik, aslining badiiyligi, lisoniy yozishmalarining muvofiq mezoni nuqtai nazaridan buni ko'rib chiqish kerak deb hisoblaymiz. Lingvistik prinsipni asosiy sifatida e'lon qilish ham asl matnni tarjima qilishda haddan tashqari ta'qib qilinishiga olib kelinishi mumkin – bu so'zma-so'z, lingvistik jihatdan to'g'ri, lekin badiiy jihatdan zaif tarjimaga aylanadi (Solih Mutallibov, 1959).

Ushbu tadqiqot jarayonida hajviyotning janr sifatida o'ziga xosligi hamda komediyalar tarjimasini bilan yuzaga kelgan muammolarni hal qilish mexanizmlari xususida fikr yuritiladi.

Tadqiqotimizga esa jami oltita savoldan iborat bo'lgan savolnoma yaratdik va uni filologiya fakulteti talabalarida sinab ko'rdik. Ushbu so'rovnomada badiiy diskursda hajviy asarlarning o'rni, ularning yo'nalishlari bilan bog'liq o'ziga xos belgilar aks etgan. Ushbu tadqiqot natijalari mavzuga oid bilimning oshishiga hissa qo'shadi chunki u to'liq o'rganilmagan muvofiq tarjima nazariyasi bilan bog'liq konsepsiyani yanada aniqroq tasvirlab beradi.

Mazkur tadqiqot hajviy asarlarning janr sifatidagi mohiyati hamda ular chet tiliga munosib tarjima qilinganda ham o'z milliy ruhini qanday saqlashiga oydinlik kiritadi. Bundan tashqari, badiiy adabiyot namoyandalari, tadqiqotchi hamda olimlar hajviyot ustida individual ish olib bormoqchi bo'lgan taqdirilarida ham ushbu izlanish ularning maqsadiga erishishida samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Maqolaning asosiy qismi quyidagicha tuzilgan; birinchidan, hajviy asar tushunchasi va uning badiiy adabiyotda va jamiyatda janr sifatidagi o'rni xususida to'xtalib o'tilgan. Ikkinchidan, ushbu tadqiqotning nazariy asoslari yoritiladi. Uchinchidan, tadqiqot loyihasi, hajviyalar namunalarini yig'ish va ularni o'zaro taqqoslash tushuntiriladi.

Nihoyat, biz natijalar haqida hisobot beramiz va muhokama qilamiz, xulosalar chiqaramiz va keying tadqiqotlar uchun imkoniyatlar aks ettiramiz.

Shuni aytish joizki, hajviy asarlar dunyodagi barcha xalqlarda bo'lishiga qaramay, unga munosabat turli millatlarda o'z ma'naviy-axloqiy o'lchamlaridan kelib chiqqan holda turlichadir. Chunonchi, G'arb ahli bundan necha minglab yillar oldin ham hajviyotga katta e'tibor bilan qaragan. Shu bois, bu o'lkalarda antik zamonlardayoq hajviy adabiyot rivojlangan. Bizning ma'naviyatimizda jiddiyat, andisha ustun bo'lgani uchun ham yozma adabiyotdagi hajviy yo'nalish rivojiga alohida e'tibor qilinmagan.

Chunki islomiy axloq o'rinli-o'rinsiz kulishni, birovlarini hajv qilishni unchalik ma'qullamagan. Bu hol badiiy adabiyotimizda hajvchilikning juda ham taraqqiy etishiga imkon bermagan. Lekin diniy, axloqiy aqidalarning qandayligidan qat'iy nazar, hayot insonni kulgili vaziyatlar, kulgi va masxaraga loyiq odamlar orasida bo'lishga majbur qilar ekan, tabiiy ravishda, badiiy hajviyot ham yuzaga kelgan va ma'lum darajada rivojlangan. Buni xalq og'zaki ijodida Mashrabning ayrim asarlari, Turdi, Gulxaniy, Maxmur bitiklari misolida ko'rish mumkin. Hajvda kulgi muhim o'rin tutadi. Odatda, kulgi deyilganda, quvonch, shodlik hosilasi tushuniladi. Lekin hajviyotdagi kulgi kishida faqat xursandchilik uyg'otmaydi. Chunki hajviy kulgi illatdan, kamchilikdan paydo bo'lganligi uchun hamisha g'am bilan yonma-yon keladi. Shu bois fojia hajvning astaridir degan qarash bor. E'tibor qilgan bo'lsangiz, Gulxaniy «Zarbulmasal»da tasvirlagan holatlarni o'qib kulasiz. Lekin bundan xursand bo'lib ketmaysiz. Qushlarning o'zini tutishlari, gap-so'zlari, qiliqlaridan tug'ilgan kulgi anduh va afsus bilan baqamti kelayotganligi sezilib turadi. Aynan, Said Ahmad yok hajviyoti haqida so'z yuritishdan oldin kulgi, uning mohiyati, badiiy asardagi o'rni va roliga alohida to'xtalishimiz lozim. Kulgi turli janrdagi asarlarda uchrashi mumkin bo'lgan hodisa, holat. Biror voqea tarkibida yoki biror obraz tasvirida kulgi, kulgili holatlar bo'lishi mumkin. Kulgi o'z o'rnida mahorat bilan, me'yorli qo'llanilsa, har qanday asarga hayotiylik, o'quvchiga qiziquvchanlik, yengil kayfiyat bag'ishlaydi. Bunday asarlarga kitobxon ehtiyoji ham katta bo'ladi (Suxrob Saitov, 2024).

Odatda, mutaxassislar badiiy asardagi kulgini ikki yo'nalishga ajratadilar - satira va yumorga. Satira so'zi yunoncha "turli, aralash" degan ma'nolarni anglatib, badiiy asarda keng ma'noda kishilardagi yoki ma'lum bir jamiyatdagi nuqson va kamchiliklarni keskin tanqid qilish, masxaralab bartaraf etish maqsadida qo'llaniladi. Yumor ingliz tilidagi "namlik, suyuqlik" so'zidan olingan bo'lib, u keng ma'noda badiiy adabiyotda yengil kulgi qo'zg'ash, hazil-mutoyiba sifatida qo'llaniladi. Bunda ijodkor ayrim nuqsonlar ustidan kinoya-kesatiqsiz do'stona, xayrixohlik bilan kuladi (Muxlisa Haqberdiyeva, 2018). Voqea-hodisalarning, jamiyatdagi insonlarning hech bir nuqsonsiz bo'lishini istab, ularni inkor etmagan holda zukkolik, topqirlik, hozirjavoblik, hazil-askiya bilan munosabat bildiriladi. Adabiyotda kulgi satira va yumor ko'rinishida namoyon bo'ladigan ikki alohida o'ziga xos teng bo'lakdir. Ularning mazmuni kulgida zuhur topadi. Hayotdagi voqea-hodisalar har xil, ba'zan bir-biriga qarama-qarshi histuyg'ularni uyg'otishi mumkin. Satira uchun voqea-hodisaning muhim tomonlarini kulgi yo'li bilan inkor etish, hukm qilish xarakterli bo'lsa, yumor uchun hodisaga ijobiylik bilan qarab, uning kamchiliklari ustidan kulish, uning yaxshi tomonlarini ko'rsatish xarakterlidir. Satira haqida bir talay ilmiy tadqiqotlar yuzaga kelgan bo'lsa-da, adabiyot nazariyasi oldida uzoq vaqtdan beri yumorga aniq ta'rif berish vazifasi turar edi. Hozirgi kunda satirik, yumoristik va hayotbaxsh kulgiga boy asarlar o'rtasidagi tafovutni to'g'ri ajratish tobora zaruriyatga aylanib bormoqda. Chunki hayotda bo'lgani kabi adabiyotda ham bunday kulgi o'ziga xos vazifalarni bajaradi. Uning vazifasi faqat kulgi hosil

qilishdan iborat bo'lmay, balki u insonni yashartirishga ham xizmat qiladi. Yumor xalqning axloqiy kuchi va qudratining ifodasi.

Kulgi insonlarda quvonch tuyg'ularini uyg'otadi, ishdan, turmush tashvishlaridan charchagan kishilarga estetik zavq bag'ishlaydi. Tabiatning insonga ato etgan eng buyuk in'omlardan biri yumordir. Yumor insoniylikning zarur belgilaridan biri bo'lib, hayotda ham, adabiyotda ham katta rol o'ynaydi. Faqat hayot haqiqati zaminida vujudga kelgan yumorgina uzoq yashashi mumkin. Lekin bu foydasiz, bo'sh bir narsa bo'ladi. Haqiqatan ham muhabbat ruhiga ega bo'lgan kulgi inson qalbining nidosi hisoblanadi. U kishilarga turlicha ta'sir qiladi. Xalq orasida sen nimaning ustidan va qanday kulishingni ayt, shunga qarab senga baho berish mumkin, degan naql bor. Shu ma'noda, yumorni insonning ichki dunyosini yoritib beruvchi rentgen nurlariga qiyoslash mumkin.

Yumor tabiatning eng qimmatli tuhfasidir, kulgi boshiga g'am-tashvish tushgan insonning donishmand hakimidir. Shuning uchun badiiy asarlarda yumordan o'rinli foydalanish yozuvchiga shuhrat keltiradi. Hajviy yo'nalish barcha xalqlar adabiyotida jonli oqim bo'lganligini jahon adabiyoti durdonalari tasdiqlamoqda. Yumor ulug'san'atkorlarning hayotga yaqinligi, voqeahodisalarning yashirin qirralarini ocha bilishi va boshqa juda ko'p imkoniyatlarga egaligi bilan ahamiyatlidir. Shu sababli Alisher Navoiy, Rable, Servantes, Gogol kabi so'z san'atkorlarining roli jahon xalqlari adabiyotida ham katta bo'lgan (Muxlisa Haqberdiyeva, 2018).

Dramatik asarlarda, ayniqsa, komediya va tragikomediyalarda kulgining ikki xil ko'rinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bular xarakter kulgisi va holat kulgisidir. Ularning birinchisi asar qahramonlarining xarakteriga, tabiatiga xos bo'lgan kulgi hisoblansa, ikkinchisi asarda tasvirlanayotgan vaziyatlar, holatlardan kelib chiqadigan kulgidir. Agar ingliz yozuvchisi Jerom.K.Jeromning "Qayiqda uch kishi" asarida qahramonlar xakteri, ularning fe'l-atvori hajvga olingan bo'lsa, Said Ahmadning "Kelinlar qo'zg'oloni" komediyasida holat kulgisiga guvoh bo'lamiz.

Hajviy asarlarning janr mohiyatini tahlil qilganda, bu janrning ko'p qirralari ko'rinadi. Birinchidan, hajv adabiy tanqid vositasi sifatida jamiyatdagi adolatsizlik va axloqiy muammolarni ochib berishga xizmat qiladi. Masalan, Gogolning asarlarida hajv ko'pincha hukumat tizimining zaif tomonlarini ko'rsatish uchun qo'llaniladi. Ikkinchidan, hajv o'quvchini o'ylantiradigan vosita sifatida ishlatiladi: uning maqsadi faqat kuldirish emas, balki chuqurroq tushunchalar va ma'nolarni ifodalashdir. Bu jihatni Mark Tvenning asarlarida ko'rish mumkin. Uchinchi yondashuv sifatida, hajviy asarlar inson psixologiyasini o'rganish va uning hayotdagi qiyinchiliklariga yengil qarash imkoniyatini beradi. Misol uchun, Said Ahmadning asarlarida oddiy xalq vakillarining kundalik hayoti hajv orqali tasvirlanadi, ularning qiyinchiliklari va hayotga bo'lgan munosabati yengil, ammo chuqur kulgi bilan ko'rsatiladi. Agar e'tiborimizni zamonaviy hajviy asarlarga qaratsak, ular badiiy adabiyotda o'zining o'ziga xos o'rniga ega. Ular bugungi kunda ko'pincha zamonaviy hayotning absurdligini, ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalar ta'sirini hajv orqali ifodalaydi. Bu jarayonlar hajviy adabiyotning doimiy ravishda zamonaviy o'quvchi bilan bog'lanish imkoniyatini

kengaytiradi. Zamonaviy hajvchilar ham Gogol, Jerom.K.Jerom yoki Mark Tven kabi klassik yozuvchilar asarlaridan ilhomlanib, bugungi davr muammolarini istehzoli shaklda ko'rsatishadi.

Badiiy adabiyotda hajviy asarlar jamiyatning aksini beruvchi ko'zgu vazifasini bajaradi. Ushbu janrning mohiyati shundaki, u orqali jamiyatdagi muammolar istehzoli va kulgili yo'llar bilan ko'rsatiladi, shu bilan birga o'quvchi o'zini va jamiyatni yaxshiroq tushunishga undaydi. Hajv janri adabiyotda nafaqat kuldirish, balki o'ylantirish, tahlil qilish va insoniyatning tabiiy qusurlariga diqqat qaratish vositasi sifatida keng qo'llanadi. Xulosa qilib aytganda, hajviy asarlar adabiyotda katta ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali ijtimoiy, psixologik va axloqiy muammolar chuqurroq ko'rib chiqiladi. Hozirgi kunda ham hajviy janrning o'quvchilar tomonidan sevib o'qilishi uning doimiy ravishda dolzarbligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Haqberdiyeva, M. Said Ahmadning dramaturglik mahorati, Qarshi Davlat universiteti BMI, 2018. B-14-16
2. Lear, N. A Case for Irony, Harvard university press, 2011. B-56
3. Mutallibov, S. Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha ocherk, Toshkent, 1959. B-21
4. Normatov, U. Said Ahmad [Adabiy portret], Toshkent "O'qituvchi", 1984. B-19
5. Quronov, D. Mutolaa va idrok mashqlari, Toshkent akademnashr, 2013. B-13
6. Said Ahmad. Tanlangan asarlar, Toshkent, 2000. B-60
7. Saitov, S. Jahon va o'zbek adabiyotida hajviy tip yaratish muammosi, ta'lim va rivojlanish tahlili jurnali, 2024. B-143
8. Toshkanov, S. Hajv tig'i, "Sharq yulduzi" jurnali, 1992. B-7